

ZULFIYA QUROLBOY QIZI ASARLARIDA O'ZBEK AYOLI RUHIYATI TASVIRI

Kamola Ibrohimovna EGAMBERDIYEVA

Doktorant

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
O'zbekiston, Toshkent

ИЗОБРАЖЕНИЕ ДУХОВНОСТИ УЗБЕКСКОЙ ЖЕНЩИНЫ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ ЗУЛЬФИИ КУРОЛБОЙ КИЗИ

Камола Иброхимовна ЭГАМБЕРДИЕВА

Ташкентский государственный университет узбекского языка и
литературы имени Алишера Навои
Ташкент, Узбекистан

UZBEK WOMAN'S SPIRITUALITY IN THE WORKS OF ZULFIYA KUROLBOY KIZI

Kamola Ibrokhimovna EGAMBERDIYEVA

PhD student

Alisher Navoi Tashkent State University of Uzbek Language and Literature
Tashkent, Uzbekistan KamolaEgamberdiyeva2021@gmail.com

UDC (UO'K, УДК): 821.512.133

For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования):

Egamberdiyeva K. I. Zulfiya Qurolboy qizi asarlarida o'zbek ayoli ruhiyati tasviri // O'zbekistonda xorijiy tillar. — 2022. — № 5 (46). — B. 161-173.

<https://doi.org/10.36078/1673250654>

Received: September 27, 2022

Accepted: October 17, 2022

Published: October 20, 2022

Copyright © 2022 by author(s).

This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>



Open Access

Annotatsiya. Zulfiya Qurolboy qizining hikoya va romanlari o'zbek adabiyotida qiziqarli va ta'sirchanligi, hayot haqiqati va inson harakterini ishonarli ochib berishi hamda turmushning murakkab masalalarini dadil ko'tarib chiqishi bilan ajralib turadi. Maqolada yozuvchi ijodining ilk davridan boshlab bugungi kungacha bo'lgan yo'lga, bu ijodkor faoliyatining tadrijiy taraqqiyotiga e'tibor qaratilgan. Bu masalalarni tadqiq etish orqali maqola muallifi ijodkorning nasriy asarlaridagi o'ziga xoslikni, ularning yutuq va kamchiliklarini aniqlaydi hamda buning sabablarini ko'rsatib beradi. Z.Qurolboy qizi nasrining muhim xususiyatlaridan yana biri – uning chinakam mukammal romanlar yaratish yo'lida ijodiy izlanishlar olib borayotganligidir. Ko'plab kitobxonlar qalbiga kirib borgan hikoyalari muallifga nasrning go'zal va ta'sirchan yirik namunalari yaratish uchun yo'l ochganligi xususida maqolada o'rinli fikrlar aytilgan.

Kalit so'zlar: hikoya; obraz; syujet; roman; makon; zamon.

Аннотация. Рассказы и повести Зульфии Куролбой кизи отличаются в узбекской литературе интересным и впечатляющим, убедительным раскрытием правды жизни и человеческого характера, смелостью решения сложных жизненных вопросов. В статье рассматривается путь творчества писателя от начала до наших дней, постепенное развитие деятельности этого художника. Исследуя эти вопросы, автор статьи выявляет своеобразие прозаических произведений писателя, ее достижения и недостатки, показывает причины этого. Еще одной важной особенностью прозы З. Куролбой кизи является то, что она ведет творческий поиск с целью создания действительно совершенных романов. В статье сделаны соответствующие комментарии по поводу того, что рассказы,

вошедшие в сердца многих читателей, открыли автору путь к созданию впечатляющих масштабных образцов прозы

Ключевые слова: повесть; образ; сюжет; роман; космос; время.

Abstract. Zulfiya Kurolboy kizi's stories and novels are among the works of Uzbek literature that are interesting, touching, convincingly embody the realities of life and human nature, and boldly raise complex issues of life. The fact that the works of Zulfiya have risen to the level of an important event in the literature determines the relevance of the topic of this article. By gradually studying the creative maturity of Zulfiya from the moment she entered the world of creativity to the present day, an attempt was made to show the peculiarities, successes and shortcomings of her prose works.

Another important feature of Zulfiya's prose is that she is doing innovative research to create truly perfect novels. Many of her stories deserve to be considered one of the best reasons to strive for beautiful and moving prose.

Keywords: story; image; plot; novel; space; time.

Kirish. “Tarixiy taraqqiyot nuqtai nazaridan Istiqlolga erishilganiga ko‘p bo‘lgani yo‘q. Binobarin, uning ijtimoiy, ma‘naviy va o‘ziga belgilarini ayirib ko‘rsatish anchagina mushkul. Ayni vaqtda o‘tgan yillar shunday salmoqqa, shunday o‘zgartuvchilik qudratiga egadirki, xalq psixologiyasi, dunyoni idrok etish, tushunish va tushuntirish tarzida shunchalik katta o‘zgarish yasadiki, avvalgi bir necha o‘n yillarda ham bunday qilib bo‘lmasdi” (4, 15).

Bu narsa adabiyotga ham ta‘sir o‘tkazmay qolmadi, albatta. Chunki yangi tuzum odamlarni ilgarigidek kollektivlashtirishga emas, balki har birini alohida shaxs sifatida ko‘rishga yo‘naltirilgan edi.

Odam chuqurlashgani, kishilarning intellektual-ruhiy saviyalari ko‘tarilgani sari ularning individual jihatlari yaqqolroq namoyon bo‘laveradi. Faqat teran o‘ylaydigan kishilargina yilg‘izlikka intiladilar. Chunki ularning o‘zlari bilan, ko‘ngillari bilan qiladigan ishlari bor. O‘ylamaydigan odam uchun yolg‘izlikdan katta fojia yo‘q. Shu bois bugun adabiyot ommaviy emas. Ilgarigi kabi katta-katta yig‘in-u tadbirlarda bitta kitobni hamma birdek sevib, maqtab, yoki birdek tanqid qilib o‘tira olmaydi. Bugungi adabiyot o‘ta individual adabiyotdir. Chunki bugungi odamning o‘zi alohida odam. Kechagina faqat biror ijtimoiy tabaqa vakili bo‘lgan inson bugun o‘z qarashlari, o‘z didi, o‘z tasavvuri va prinsipiga ega bo‘lgan shaxsdir. Shaxsligi teranlashmagan millatning qiziqishlari bir xil yoxud bir-birlariga yaqin bo‘ladi. Shaxsiyati teranlashgan millatning har bir a‘zosi o‘z olami bilan yashaydi. Bunday odamlar olomon bo‘lolmaydi, to‘dalashaolmaydi. Va shuning uchun ham bugun hammani birdek rom qilishi mumkin bo‘lgan narsaning bo‘lishi mumkin emas.

Badiiy asarlar qahramoni hamisha biror kurash: sinfiymi yoki o‘zi bilanmi yo biror obraz bilanmi — band holda tasvirlanishi ham o‘tmishda qoldi. Endi badiiy adabiyot odamning tuyg‘ulari, o‘y-fikrlari, hatti-harakatlarini tasvirlay boshladi.

Tadqiqotimiz ob‘yekti bo‘lgan Z.Qurolboy qizi asarlariga ham shu holat xos. Uning roman va hikoyalarida olam gultoji, mukarram yaratiq hisoblangan inson shaytoniy nafi tufayli gunohga moyil, qilgan gunohlari tufayli qabihliklar qilishga ham qodir, shu bilan birga qilgan gunohlarini o‘ylab qiynaladigan murakkab mavjudot sifatida

gavdalanadi. Yozuvchi o'quvchiga aql o'rgatmaydi, hayotga tayyorlamaydi, unday qilish to'g'ri, bu noto'g'ri deya yo'l-yo'riq ham ko'rsatmaydi. U his uyg'otishga urinadi. Chunki Abdulla Qahhor aytganidek, "bilgan bilib qo'yaverishi mumkin. His qilgan his qilib qo'yavermaydi". Z.Qurolboy qizi butun ijodi davomida shunga amal qiladi. Qay bir asarini olmang, barchasida o'quvchini iztirobga soladigan, quvonchga to'ldiradigan, umuman, bezovta qiladigan jihat mavjud. Uning asarlarini befarq, hissiz o'qib bo'lmaydi. Yozuvchi asarlarida tipik, ya'ni barchaga tanish, barchaga o'xshash odamni emas, balki tip — alohida, hech kimga o'xshamagan, betakror odamni tasvirlaydi.

Asosiy qism. O'zbek adabiyotida ayollar obraziga hamisha ehtiyot bo'lib yondashilgan. Ayol faol ishtirokchi sifatida gavdalangan badiiy asarlar jadid adabiyotidan boshlab ko'rina boshladi. Ungacha ayolning o'zi emas, balki ma'shuqa yoki shoirning ilhom parisi, go'zallik timsoli sifatida ijodkor ko'nglida uyg'otgan tuyg'ulari ta'riflanardi. Asr boshidan maishiy yuk ortib bo'lsa-da, ayol obraziga qo'l urila boshlandi. Urush yillari adabiyotida jangchini kutayotgan ona, singil, yor, urushdan so'ng barcha sohada erkaklar bilan barobar faoliyat yurgizayotgan teng huquqli kishi, 1980-yillar oxiriga kelib esa uni jamiyat, tuzum, og'ir sharoit qurboni sifatida ijtimoiy yuk bilan ifodalash boshlandi.

Istiqlol davri adabiyotida dastlab qat'iy tamoyillar, shakllangan adabiy qarashlar mavjud emas edi. Ilgarigi tamoyillar va adabiy qarashlar esa bu davrga kelib eskirgan, yangilari esa hali takomillashib ulgurmagandi. Bu davrda tarjimaga ko'p qo'l urilganligini boisi ham shunda. Aynan shu davrda o'zbek kitobxonlari turk adabiyoti namunalariidan bahramand bo'ldilar.

Yillar o'tib, barcha soha kabi adabiyot ham bir qadar sokin, barqaror tus olgach, ayol obrazi badiiy adabiyotga o'zining barcha qirralari bilan kirib keldi. Salomat Vafo asarlarida turkona jangari tabiatli, birmuncha yovvoyi, isyonkor ayol gavdalansa, Dilbar Saidova asarlarida muloyim, mehribon, kechirguvchi, keng fe'lli chin o'zbek ayoli tasvirlanadi.

Z. Qurolboy qizi asarlaridagi ayol obrazlari Salomat Vafo asarlaridagiga o'xshab ketadi. Z. Qurolboy qizi ham S. Vafo kabi so'zni avaylab ishlatmaydi. Kuydiruvchi so'zni, seskantiruvchi so'zni ham, joyi kelsa, ayamay qo'llaydi. Shuning uchun ham bu ayollar yoqimsizroq, sovuqroq chiqadi. Va shu bois kitobxon xotirasida uzoq vaqt saqlanib qoladi. Aynan og'riqli so'zlar esdan chiqmaydigan obraz yaratishga yordam beradi.

Z. Qurolboy qizi asarlariga obrazlarni, bu ayniqsa, ayol obrazlarida bo'rtib ko'zga tashlanadi, silliqlab, illatlardan xalos etib kiritmaydi. Iflos odamni butun iflosligi bilan, butun jirkanchligi bilan ko'rsatishga urinadi. "Mashaqqatlar girdobi"dagi Sanobar bilan Gulruh obrazlarini o'rganib ko'raylik. Bir-biriga butunlay zid bo'lgan ikki olam. Sanobar befahm, tepsa-tebranmas, surbet, xunuk semirib ketgan, yoshiga nisbatan qari ko'rinadi. Gulruh andishali, tortinchoq, pazanda, odamiy, aslidagidan ancha yosh ko'rinadi. Sanoar noshud eri bilan ko'ngilsiz turmushining hissasini boshqalardan chiqarishga urinadi. Hayotning achchiq sinovlari oldida yolg'iz, himoyasiz

qolgan, eng yaqin deb bilgan kishisidan yordam u yoqda tursin, uni shunchaki tushunishni ham ko'rmagan Gulruxning holatlari tasviridagi og'ir yuk kitobxonni o'ylashga majbur qiladi.

Salomat Muhammad Vafo va Zulfiya Qurolboy qizi romanlari hozirgi davrning muhim va murakkab muammolarini dadil ko'tarib chiqqanligi bilan adabiyotimizda sezilarli hodisa bo'ldi. Lekin faqat murakkab muammolarni jasorat bilan ko'tarib chiqishning o'zi yozuvchining yoki adabiyotning katta yangiligi hisoblanmaydi. Agar shunday bo'lganida, publitsistika badiiy adabiyotning yetakchi janriga aylanib qolishi hech gap emas edi. Zulfiya Qurolboy qizi nasrining asosiy fazilatlaridan biri — u hozirgi zamon hayotining ko'plab murakkab muammolarini, og'riqli masalalarini dadillik bilan ko'tarib chiqishning o'zi bilan cheklanib qolmaydi, balki ularni keng ko'lamda, ta'sirchan shakllarda, qiziqarli tarzda, ibratli xulosalar chiqarishga imkon beradigan yo'sinda badiiy talqin etishga intilmoqda. Adabiyotning publitsistikadan farqli tomoni shundaki, u qalamga olgan har qanday hayotiy muamoni zavol bilmas yangilik, ya'ni diniy mavzu-masalaga uyg'un aks ettiradi. Bunday aks ettirishga intilish natijasida so'nggi yillarda Zulfiya Qurolboy qizining "Armon asirasi" va "Mashaqqatlar girdobi" nomli romanlari yuzaga keldi.

Adibaning "Armon asirasi" romanida oddiy odamlarning oddiydan ham jo'n tashvishlari ko'rsatib berilgan. Romanda millat tarixi taraqqiyotining hal qiluvchi bosqichidagi ulkan ijtimoiy voqealar, siyosiy evrilishlar emas, balki o'z mavjudligini ta'minlashga-da nochor, kunini ko'rishga zo'r berib urinayotgan, ammo shuni ham uddalay olmayotgan kishilarning ayanchli taqdirleri tasvirlangan.

"Armon asirasi" romanida o'zligini saqlash, o'z qiyofasiga ega bo'lish imkoniga ega bo'lmagan odam, uni hamisha turlanib-tuslanib turishga, yeshilishga majbur etadigan vaziyatlar va shu holatda tirikchilik o'tkazishga mahkum shaxslarning mavjudligidagi fojiaaviylik hamda ularning sezimlaridagi kishini larzaga soluvchi jihatlar ulkan xayrixohlik bilan tasvirlangan. Ayni paytda asarda har qanday yomon sharoit ham chinakam odamning shaxsiyatidagi o'zak sifatleri o'zgartira olmasligi aks ettirilgan. Romanning mazkur xususiyatlari haqida adabiyotshunos olim Qozoqboy Yo'ldoshev shunday mulohaza yuritadi: "Odatda, romandan hayotdagi voqealarning ijtimoiy salmoqqa ega qahramon tabiatini ochishga xizmat qiladiganlarini saralab tasvirlash talab qilinadi. Zulfiya esa voqealarni muhim — nomuhimligiga ajratmaydi, qahramonlari harakterini o'ta jo'n, mayda va hatto tuban maishiy voqelik fonida ko'rsatishdan ham tap tortmaydi. Bu xil yondashuv ko'p o'rinlarda, obrazlarning mohiyatini ochishda sdibaga qo'l kelgan" (3, 1).

"Armon asirasi" romanida eng ko'p o'rin egallagan na Nasiba, na umri fojialar girdobida o'tgan Donish, na prototipi muallifning o'zi deyish mumkin bo'lgan Hulkar Armon, na qismatga achchiqma-achchiq yashayotan Behzod va na yovuzligi bilan hammaning ko'ngliga dahshat solib turuvchi Talgat, nafaqat ijtimoiy hayotni o'zgartira oladi, balki o'zlarining tirikchiliklarini ham tuzuk yo'lga qo'ya olishmaydi. Ularning birortasi ham qahramon darajasiga chiqa

olmagan kishilar. Shunchaki kun kechirib yashab bo'lmaganideky, tirikchilik o'p'qoniga yutilgan odam ham qahramon bo'la olmaydi.

Asarda favqulodda holatga tushgan odamlarning tarang ruhiy holatlari, hissiy-ma'naviy evrilishlari mahorat bilan ko'rsatilgan. Jumladan, asarda yo'qchilik tufayli o'zbek ayolining o'zidagi ezgu sifatlardan ayrilib borish jarayoni ta'sirli aks ettirilgan:

“Nasiba ham javray-javray oxiri tindi. Yotoqxonaga kirib, eshikni ichkaridan qulfladi. Keyin burchakda turgan sandiqqa o'xshash qutini ochib, uning ichidan chog'roqqina boshqa bir qutini — aftidan, bu egizak buyumlar qandaydir yig'ma mebelning bo'laklari edi — olib uni tizzasiga qo'ydi-da, qopqog'ini ochdi-da, ichidan bir dasta eski-yangi pullarni olib, shosha-pisha sanay boshladi. Sanoq oxirlagan sayin uning rangi o'chib, borardi. *“Voy o'lsin, baloyam qolmabdi-ku”, — deya pichirladi o'ziga-o'zi*” (2, 14).

Ma'naviyat juda yuksak tushuncha, lekin u o'zgaras va turg'un hodisa emas. Odamdagi ma'naviy sifat hayotning o'zida, uning ta'sirida shakllanadi, o'zgaradi va yuksaladi. Romanda to'g'ri yo'lga qo'yilmagan hayot odamning moddiy holatigagina emas, balki ma'naviy-axloqiy sifatlarga ham salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligi yorqin aks ettirilgan.

Zulfiya Qurolay qizi timsollar mohiyatini yorqin ochuvchi qirralarni yaxshi biladi. Shuning uchun ham u Nasibaning ruhiyatidagi evrilishni to'liq ko'rsata olgan. Romanda soddagina Nasiba timsolida adoqsiz mashaqqatlar, so'ngsiz azoblar ham ezgulikka umid va odamlarga ishonch tuyg'usidan ayirolmagan o'zbek ayoli berilgan. Oilasi tinchligi, bolalari sog'ligi, erining xotirjamliginagina o'ylaydigan bu ayol dunyo muammolarini hal etishni da'vo qilmaydi, shohona hayotni orzulamaydi, odam qatori yashashni istaydi xolos.

Nasiba qahramon ham emas, donishmand ham emas. Lekin u odamning tirikligi faqat azoblardan iborat bo'lishi mumkin emasligini biladi, osamlarga ishonadi va ezgu kunlar kelishiga chinakamiga umid qiladi. *“Oxiri kun kelib uning ham omadi yurishib qolar. Axir dunyo o'zgarishga yuz tutmoqda”* (2, 37)!

Donishning sa'y-harakatlari-yu Hulkar Armonning jimgina qo'llovi oqibatida zabun ahvolga tushgan Nasibaga kishi bir tomondan achinsa, ikkinchi tomondan, jahllanadi ham. Chunki odam tushgan holati, og'ir ahvoli uchun hamisha asosan o'zi sababchidir. Erk va saodat hech qachon hech kimga birov tomonidan taqdim etilmaydi. Uni har kim o'zi qozonishi, o'zi uchun qo'lga kiritishi kerak. O'z erkini ta'minlay olmagan inson tanqid va yozg'irishga loyiq. Ruhi kishanlangan, erkin bo'lmagan Nasiba Donish yoki Talgat bo'lmasa, boshqasining changaliga tushib, yana sho'riga sho'rva to'kilardi. Bu aniq. Chunki Nasiba tabiatan munis, fidokorlig-u qurbon bo'lishga ruhan moyil qiz edi. Qissada Hulkar Armon tilidan aytilgan gaplarni o'qib shu xulosaga kelish mumkin. Hulkar Armon ham vaqtida Nasiba kabi andishalikkina, nozikkina, o'zini o'ylamaydigan bo'lgan. Ammo turmush zarbalari, hayot sinovlari, erining lattachaynarligi, ishxonasidagi muhit — hayotida yuz bergan va berayotgan barcha hodisalar uning diydasi qotirib tashlagan. Unda birgina umid qolgan — farzandlarim katta bo'lsa, ahvol o'zgaradi, ana shunda o'zligimga qarshi bormay yashay boshlayman.

Ana shu umid uni ulug'laydi. Zero, shayton va uning yo'lidan ketayotnargina umiddan mahrumdirlar.

Kim biladi, balki Hulkar Armon faqat yaxshilikni ko'zlagan, o'zi tushgan holga Nasibaning ham tushib qolishini istamagani bois tinmay qarz bergan, Donishning lotoreya haqidagi xomxayollariga pishang bergan, uni o'tqazib, ko'zini ochishga urinmagandir. Chunki Nasibadagi hayot qiyinchiliklari, yo'qchilik, zarbalar sindirolmagan, buka olmagan o'zbekona tutum, o'zgarishsiz qolayotgan fe'l-atvor unga xush kelar, havasini qo'zg'ardi.

Hulkar Armon juda qabariq, dahshatli, hatto ba'zi o'rinlarda vahshiy qiyofa kasb etadigan obraz. Hulkar Armonga qo'yilgan ism yoki taxallus bejiz emas. Asar o'qilishi jarayonida, ayniqsa, kutilmaganda kelgan gazetchi yigitning Hulkar Armonga pul evaziga ijodga undashi, ayolning xonaga qamalib olib, serialini tugatmaguncha chiqmay yozishi, dilidan kechayotgan iqrori lavhasidan so'ng bu ayolning ichi dardlarga to'laligiga va ularning pishib, yetilib chiqishga yo'l topolmay turganiga, sal turtki bo'lsa, otilib chiqib ketishiga amin bo'ladi kishi.

Mana shu obraz Z.Qurolboy qizi qalamiga mansub yana bir roman "Mashaqqatlar girdobi" qahramonlaridan biri Sanobarni eslatadi. Bu obraz bosh qahramon Gulrux o'zi kabi savdogar, dadil, shijoatli, shu bilan birga beg'ubor, bola kabi samimiy, yordam so'ragandan borini ayamaydigan, o'zida yo'q bo'lsa, boshini baloga qo'yib bo'lsa ham topib beradigan ayolning taqdirini sindirishga juda urinadi. Undagi bu g'araz — ko'rolmaslikning sababi romanda mana men deb ochiq ko'rsatilmaydi, balki sinchkov o'quvchi matn zimnidan Sanobarning Gulruxga juda havasi kelishi, unga o'xshash orzusi borligi, ammo zinhor o'xshay olmasligini yaxshi bilishi, shu bois alamzada bo'lib, uni yomon ko'rib, hatto nafratlanib qolganini ham ilg'aydi.

Gulrux esa ilgari ham og'ir kunlarga tushgan, bir necha bor sinib, boshqatdan o'zini tiklab olgan edi. Zotan, uning asl kasbi jarrohlik edi, har kuni inson hayotini hal qilish, o'lim yoqasidan olib qolishga yoki o'limiga sabab bo'lishdek mashaqqat bilan bir necha bor to'qnashishiga, shu bilan yashashiga to'g'ri kelgan edi. Shu bois ham u savdoni tanlaydi, savdo ishi tavakkalchilikni talab qiladi. Ba'zan yaxshi bo'lsa, ba'zida ishlar umuman yurishmaydi. Ammo Gulruxni qiynayotgan muammo mol-mulk, pul emas, marhum bemori haqidagi xotiralar, uning o'limida o'zini aybdor his etish edi. Bu tuyg'u, vijdon azobi butun vujudi, miyasini parmalab, har soniyasini zaharlab turardi. Z.Qurolboy qizi asarlarini o'qigan odam ulardagi shafqatsizlikdan ezilib ketadi.

Adabiyotda ayol hamisha nafosat, mehribonlik va shafqat timsoli sifatida tasvirlib kelingan. Ammo "Ayol", "Momo Havo", "Muhabbat va nafrat", "Gunoh", "Armon asirasi" asarlarida ayollar o'z tabiatlaridan kelib chiqqan holda eng qora, jirkanch bo'yoqlarda tasvirlangan. Xususan, "Momo Havo" hikoyasidagi Nafosat obrazi o'zbek adabiyotida yangilik deb atash mumkin bo'lgan salmoqqa, badiiy yukka ega. O'qirman hikoya so'ngiga qadar Akbar bilan birga Nafosatni suyadi, unga topinadi, har soniyada undan minnatdor bo'ladi, yaxshi ham shunday ayollar bor degan taskin bilan ko'ngli

ko'tariladi, Akbarning taqdiridan xotirjam bo'ladi, uning nogiron qizi ko'chada qolmaydi, uni Nafosat tuzatib yuboradi degan ishonchda yuradi, hatto Akbardek ichkilikboz, mas'uliyatsiz, irodasiz, o'zini tiya olmaydigan insonga taqdir Nafosatdtr betakror, aqlli, andishali, fidokor, chinakam o'zbek ayolini ro'baro' qildi ekan, deya yozg'iradi ham. Ammo hikoya so'ngidagi birgina "samimiyat o'pirilib tushgandi..." (1, 25) jumlasini yuqoridagi qanoatlarning barchasini yo'qqa chiqaradi, sokin, xotirjam holdagi kitobxonni halovat og'ushidan beshafqat, muzdek oqim bag'riga tashlaydi.

Z. Qurolboy qizi kishi tabiatidagi illatga barmoq nuqishni xush ko'radi. Uni alohida olib, bo'rttirib, umuman tarashlamay, silliqlamay kitobxonga taqdim etadi. Bu yerda ham Nafosatni pardozlamaydi, tarashlamaydi, faqat qilmishlari, gap-so'zlarini birma-bir gavdalandirib boraveradi, o'quvchini Akbar kabi bexabar holda ushlab turadi. Bu juda qiyin vaziyat — ijodkorga asar oxiriga qadar xolis qolish, qahramonning asl tabiatini pinhon tutish, unga munosabati yomon yo yaxshi ekanini bildirmaslik kabilar har bir ijodkorning ham qo'lidan kelavermaydi. Z. Qurolboy qizi umuman odamni, shu bilan birga ayolning sirli tabiatini ham juda yaxshi bilishini namoyon etgan.

"Mashaqqatlar girdobi" romanidagi Sanobarning pul ishlab qolish, ozod bo'lish ilinjida Gulruxni mardikorlarning ish beruvchisi Hakim Nazarichning shartiga ko'nishga undashi bilan "Armon asirasi" dagi Zuhra o'z ehtiyojini qondirish, alamzadaligini unutish, bozordagilar oldida men adashmayman deya bir ko'rsatib qo'yish istagida hashamatli binoda ishlay boshlashi orasida mushtaraklik bor. Farqi — Sanobar uni ozodlik uchun, Zuhra esa yaxshi yoki yomonning fahmiga bormagani uchun qilgan edi. Shu o'rinda kitobxonga ham, boshqa qahramonlarga ham yengiltabiat ko'ringan Zuhra tabiatining yashirin jihatlari namoyon bo'ladi. Donishning ko'zlariga qaray olmay, o'zini tanimaganga olib ketgani qizning hali u qadar surlashib, tubanlashib ulgurmagani, uni qutqarish, to'g'ri yo'lga solish imkoni hamon borligini bildiradi.

Adiba asarning biror o'rnida na Nasiba yo Gulruxni sharmhayoli, iboli deb, na Zuhra yo Kseniyani hayosiz, surbet, pul uchun hech narsadan qaytmaydigan pastkash deb ta'riflagan. Z. Qurolboy qizi ularning barchasini harakatda ko'rsatgan. Kitobxon ko'z o'ngida qahramon tabiati uning gap-so'zlari, tutumidan ayonlashib boraveradi.

Inson o'ziga yaxshilik qilgan odamdan minnatdor bo'lishi qiyin. Uni hamisha minnat xavfi qiynaydi. O'ziga yordam bergan kishining oldida tili qisq bo'lib yurishi, uning qo'lga qarab qolganligi, birovga qaramlik tuyg'usi kishi ko'nglidagi ezguliklarni yemirib yuboradi. Yoki hamisha yordam berishlariga o'rganib qolib, mazaxo'rak bo'lib qoladi. "Mashaqqatlar girdobi" romanidagi Po'lat Damirovich obrazi ham shunday. U ayoli bergan pullarni noto'g'ri yo'llarga sarflaydi, hamisha alamzada bo'lib, gasterbayterlardan o'ch olib, ularni tahqirlashdan huzurlanib yuradi. Gulruxga birdan qiziqib, hatto "sevib" qolishi ham uning turmush o'rtog'i oldidagi tili qisqiligi tufayli edi. Rafiqasidan qarzdor ekanligi uchun uni juda yomon ko'radi, shu bilan birga, yaxshi hayotni xohlagani uchun undan ayrilib ham keta olmaydi. O'z navbatida, Po'lat Damirovichning ayoli ham

buni yaxshi biladi. Vaqti-vaqti bilan erining tanobini tortib, tartibga chaqirish uchun keskin choralar ko'rib turadi. Shu o'rinda Z. Qurolboy qizi o'zbek ayollari bilan boshqa millat vakillari orasidagi farqni juda go'zal, g'ashga tegmaydigan shaklda ko'rsata olgan. O'zbek ayoli ijtimoiy-moddiy ahvolidan qat'i nazar, er oldida bir pog'ona past turadi, hech bo'lmasa shunday rol o'ynaydi.

Nasiba va Gulrux orasidagi o'xshashlik nafaqat ularga ta'sirini o'tkazgan ayollar-u ikkisinin ham hayoti izdan chiqib ketganida, balki har ikki ayolning har kuni hayotning shunday og'ir sinovlari-yu atrofdagilarning qaqshatqich zarbalari, bilmasdan aytganday qilgan piching-u ta'nalari, yerga urmoqchi bo'lib qilgan harakatlari-yu o'zini ustun qo'yishga urinishlari, eslashning o'zidayoq nafratlanib ketadigan kishilarining ular vasliga intilishi (Nasibaga Talgat, Gulruhga Hakim Nazarich va Po'lat Damirovich) — shuncha azoblarga dosh berib yashashning uddasidan chiqa olganida ham ko'rinadi. Ulardan birini eski-tuski bozorga, birini esa Rossiyaga olib borgan sabab esa odamlarning beshafqatligi, jamiyatda bunday sofdil, pokiza shaxslarga o'rin yo'qligidir...

“Armon asirasi”da Hulkar Armon taqdirga tan beradi, unga isyon qilmaydi. Yo'qotgani uchun kurashmaydi, ammo o'zini-o'z yeb bitiradi. Kim biladi, balki uning o'tmishida ham Sanobar kabi “beminnat” yordamchilar-u Po'lat Damirovichlar bo'lgandir. Balki shu sababli ham u suygan kasbi, turmush o'rtog'idan ayrilgandir. Bu yog'i kitobxonga qorong'u.

“Armon asirasi”ni o'qigan kitobxon bir narsaga amin bo'ladi: Hulkar Armon va Nasiba avval-boshdan bu dunyoning odamlari emas edilar. Ular bu dunyoga, bunday odamlarga uvol. Taqdirlarining fojiali yakunlanishi ham kitobxonga elas-elas ayon edi. Chunki yurakda bunday tuyg'ularni ko'tarib yurish, ularni har kuni boshdan qayta kechirish vujudni holdan toydirishi, asablarni ishdan chiqarishi tayin edi. Hulkar Armonning qismatiga qiynoqda umr ko'rish yozilgan. Va u buni g'ayrushuuriy tarzda sezardi ham. Shu bois u taqdirga hyech qanday tadbir ko'rmadi, balki quchoq ochib peshvoz chiqdi.

Muallifning yutug'i shundaki, asarlaridagi biror obraz biz shu paytgacha ko'nikib qolgan, tasavvurimizdagi odatiy qahramonlarga o'xshamaydi. Ular o'z tabiatiga ega va faqat shu tabiatlaridan kelib chiqib, harakat qilishadi. Sanobar (“Mashaqqatlar girdobi”), Sultonmurodning xotini (“Qadimiy qo'shiq”), Nafosat (“Momo Havo”) va Xadichaning (“Yozsiz yil”) bu qadar befahm, to'nkamijoz-u Gulrux (“Mashaqqatlar girdobi”), Shohsanam (“Qadimiy qo'shiq”), Nasibaning (“Armon asirasi”) shunchalar nozik, andishali, tortinchoq, mas'uma bo'lishi mumkinligiga o'quvchini ishontira oladi. Adiba obrazlar hatti-harakatini tadqiq qilishdan erinmaydi. U voqelikning tashqi tomonini, oqibatni ko'rsatishga shoshilmaydi. Har bir oqibat muayyan sababning farzandi ekanligini qahramonlari taqdiri misolida ko'rsatadi. Har bir qahramon hatti-harakati, fe'l-atvoriga mos taqdirga ega bo'ladi, shu bilan birga uning tabiatini peshonasiga bitilgan taqdiri ham belgilaydi, degan qarash Z. Qurolboy qizi asarlariga singdirilgan.

Chindan, Nasiba boshqa insonga turmushga chiqqanida ham ahvol o'zgarmas edi. Uning fe'li shu qadar yumshoqki, uni sal

yaqindan tanigan kishining darrov xo‘jayinlik qilgisi kelib qoladi. Va aksincha, ehtimol chinakam “shahzoda”sini uchratgan va u bilan turmush qurib, juda baxtli bo‘lmasa-da, bu qadar fojiaiy ham emas, tinchgina yashashi mumkin edi.

Agar Nasiba boshqa turmush qurganida ehtimol voqealar butunlay boshqa yo‘sinda rivojlangan bo‘lardi. Ammo taqdirga tadbir yo‘q. Taqdirdan qochib, qo‘yilgan har bir qadam kishini aynan taqdirga yaqinlashtiraveradi.

“...tasodif otlig‘ xilqatning yuzlab-minglab unsurlari mutlaqo kutilmaganda ayni lahzalarda mutanosib holda jamuljam bo‘lgan va aynan ushbu lahzalarda xonamizda kimnidir kutishmoqda edi. Taqdirdan qochib qutulib bo‘lmaydi...” (3, 34).

Shu kabi Z. Qurolboy qizi asarlarida ayollar obrazi vositasida ham hamisha taqdirning muqarrar ekanligi, bandaning uni o‘zgartirishi imkonsizligi, inson hamisha taqdir, hayot oldida o‘jiz qolishi, taqdir o‘yinlariga aralashish inson hayotini faqat yomonlashtirishi tasvirlanadi.

Z.Qurolboy qizi asarlarida ijobiy qahramon ayol taqdiri aksar hollarda ayanchli yakun topadi. Aytish mumkinki, hali yashashi, ko‘p yaxshi ishlarni amalga oshirishi, jamiyatga qancha foydasi tegishi mumkin bo‘lgan shaxslar ketib, hissiz, atrofdagilarga faqat zarari tegadigan, ko‘nglida yorug‘ tuyg‘usi bo‘lmagan, alamzada personajlar yaxshilarni mahv etib, bemalol yashashda davom etaveradi.

Adiba barcha masalalarga yuqoridan turib, biroz kinoya aralash yengil yumor bilan yondashsa-da, taqdiri azalga ishonadi. Ayol hayot qo‘lida o‘yinchoq, vaziyat va atrofdagilar qurboni bo‘lishi mumkinligini haqqoniy ko‘rsatib beradi. Bu ham balki bosh qahramonga Allohning marhamatidir, sinovidir ehtimol. Har holda besabab hodisa yo‘qligi, Nasiba-yu Gulruxlar, Shohsanam-u Hilola, Nazokat-u Shahnoza Alievnalar taqdiri azalda qanday bitilgan bo‘lsa, shu yo‘sinda kechgani, faqat atrofdagilarning sa‘y-harakatlari tufayli fojiaiviroq tus olgani yozuvchining asarlarida ishonarli tasvirlangan. Yozuvchi o‘quvchini ipsiz bog‘lab turadigan jo‘shqin, shiddatli voqealarni emas, qahramonlar tuyg‘ularidan kelib chiqqan voqealarni ko‘rsatishga intiladi. Ularda hamisha shaxs tasviri, uning katta-kichik dardlari, iztirob-u umidlari mavjud.

Asl badiiyat yo muhabbat, yoki nafratdan oziqlanadi. Z.Qurolboy qizi asarlarining ko‘pc qismi ham adolatsizlik, yovuzlik, xudbinlik, olchoqlikka nisbatan nafrat tufayli paydo bo‘lgan. Ernest Xemingueyning: “Katta iste’dod, bilim va baxtsiz bolalik bo‘lsa, yozuvchi bo‘lish qiyin emas” tarzidagi gapi bejiz emas. Bolalik chog‘larida ro‘y bergan ozgina nohaqlik ulkan fojia, qilday yaxshilik, cheksiz saxovat tuyuladi odamga. Aynan bolalikda ro‘y bergan voqyea-hodisalar ijodkor qalbini to‘lqinlantirib, ilk urug‘larni sepadi, uning qay yo‘sinda asar bitishi, qanday ruhiyatli adib bo‘lishiga o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Shu kabi Z.Qurolboy qizi bitiklari ham kitobxonga taqdir bu adibni ertaroq og‘ir sinovlariga duchor qilgan, bolalikdan o‘ychan, kuzatuvchan, ta’sirchan, hech narsani nazardan chetda qoldirmaydigan sinchkov inson bo‘lgan degan taxminga olib keladi.

Tanqidchi Qozoqboy Yoʻldoshev “Oldinlari asarlardagi adabiy timsollar oʻz nomiga muvofiq tarzda timsol boʻlardi, yaʼni badiiy asarda tasvirlangan personaj kimlarningdir umumlashtirilgan obrazi, qandaydir ijtimoiy qatlamning vakili sanalardi. Endilikda adabiy obraz faqat oʻzining timsoli, faqat oʻzining vakili, xolos! Badiiy asarda odamni toʻdaning vakili emas, bitta va betakror shaxs sifatida aks ettirish, unda biror ijtimoiy qatlamga xos xususiyatni emas, balki yolʼiz ungagina tegishli yaxshi-yomon sifatlarni tasvirlash shu xil estetik natijaga olib keldi” (2, 6), — deb xulosa chiqaran edi.

Asardagi Donish timsoli munaqqidning bu fikrlarini tasdiqlaydi. Uni tushunish va yoqlash qanchalar qiyin boʻlsa, qoralash va rad etish ham shunchalar mushkul. Bu personaj tabiatini belgilashda yozuvchi pozitsiyasining noaniqligidan emas, balki asarda odam tabiatidagi oʻzgaruvchanlik va beqarorlikning toʻgʻri koʻzda tutilganidadir. Garchi romanda Donishning oʻtmishi bir qadar yorqin ranglarda eslansa-da, aslida, tabiatidagi betayinlik, ojizlik, qiyinchiliklarga betoqatlik uning har bir xatti-harakatida koʻrinib turadi.

Muallif Donish obrazi misolida oʻzgani tuymoq va tushunmoq bilan uning uchun birgina amaliy qadam qoʻymoq oʻrtasida cheksiz masofa borligini koʻrsatadi. Yozuvchi asarda ijodkor oʻz davridan tashqarida, uning taʼsiriga berilmay turolmasligini Hulkar Armon timsolida nozik ifoda etadi. Bunda u Hulkar Armon tabiatidagi oʻziga xosliklarni koʻrsatish yoʻlidan boradi.

Shu tariqa qismat va inson munosabatlari haqidagi bahs romanning boshidan-oxirigacha davom etadi. Asardai har bir qahramonning taqdiri oʻsha munosabatlarning biror yoʻsinda namoyon boʻlishida taalqin etilgan. Roman qismatni kutib yotishni emas, balki uni munosibroq qilish uchun tinimsiz intilish, qiyinchiliklar ogʻushida tozarish kerakligiga oʻquvchini ishontira oladi. “Armon asirasi” romanida milliy romanchilikka yangilik boʻlib qoʻshiladigan jihatlar anchagina. Zuhra, Talgat, Nasiba, Hulkar Armon va ayniqsa, Donish kabi obrazlarni oʻzbek adabiyotidagi yangilik deyish mumkin.

Zulfiya Qurolboy qizi qalamiga mansub “Mashaqqatlar girdobi” romani dastlab “Yoshlik” jurnali (2007 yilning 5-, 6-sonlari va 2008 yilning 1-sonlari)da chop etildi. Tahlil jarayonida romanning shu variantidan foydalanildi.

Romanda hozirgi davrda katta pul topish maqsadida Oʻzbekistondan oʻzga yurtlarga chiqib ketgan va mardikorlikka yoki “qullikka” tushib qolgan kishilar muammosi qalamga olingan. Yozuvchi eʼtiborini jalb qilgan mazkur mavzu bugungi kunning dolzarb muammolaridan. Bugun birgina Rossiya Federatsiyasining oʻzida ikki milliondan ortiq oʻzbekistonlik mardikor boʻlib ishlamoqda. Undan tashqari hozir Qozogʻiston, Koreya, Shvetsiya, Hindiston va Birlashgan Arab Amirliklari singari mamlakatlarda pul topish dardida Oʻzbekistondan chiqib ketib, mardikorlikka yoki “qullik”ka tushib qolgan yuzminglab kishilar kun kechirmoqda. Ulardan koʻpchiligining fojiali taqdiri aksariyat yozuvchilar singari Zulfiya Qurolboy qizini ham qoʻliga qalam olishga majbur qilgan. Xuddi shuni koʻzda tutib, romanga muallif “birgina aybi — yonidagi

hujjatini yo‘qotib qo‘ygani uchun o‘zga yurtida g‘aroyib uqubatlarni boshidan kechirgan yigitning sevgi qissasi” deya ta’rif bergan.

Asar syujeti odatiy o‘zbek oilasidan boshlanadi. Bu oilaning boshqa oilalardan farqi — farzandsizligidir. Xuddi shu dard asarning boshlanishidagi qahramon kayfiyatini belgilaydi. Farzandsizlik asar qahramoni Davronda o‘zidan, xotinidan, sevgan sohasidan qoniqmaslik hissini uyg‘otadi: *“G‘oyat iste’dodli bo‘la turib hayotda o‘z o‘rnini topolmay yurgan odamlar uchraydi. Nokamtarlik sanasangizda, avvaldan aytib qo‘yay, men o‘zimni shunday odamlar toifasiga qo‘shardim”*. U davom etadi: *“Xotinim: “Qo‘nimsiz odamsiz!” deydi menga. Istisno tarzda aytadigan bo‘lsam, uning gapida zig‘ircha jon bor”*. O‘zidan qoniqmagan odamda shaxslik xususiyatlari yo‘qolib boradi. Qishloq, shaharlardagi ko‘plab kekxa va ularga yaqin avlod shu darddan azob chekadi. Davron alohida bo‘lishga, yo‘lini topishga urinmaydi. O‘zini tashlab qo‘yilgandek his qiladi. Qahramon yashayotgan muhit, atrofidagilarning fe’li va unga munosabati dialoglarda aniq ko‘rinadi:

“— Ishdan bo‘shadim!.. Ishdan bo‘shadim!.. Yana takrorlaymi?”

— Hazillashmang, — deydi Saodat.

— Hazillashayotganim yo‘q.

— Nega bo‘shadingiz, axir yaqinda kirgandingiz-ku ishga?! — deydi Saodat yig‘lamoqdan beri bo‘lib.

— Shunaqa bo‘lib qoldi-da, — dedim o‘rnimdan turib karavotda oyog‘imni osiltirib o‘tirgancha.

— Xursandmisiz, nima balo?

— Yig‘laymi? Ilmiy tekshirish insituti, degan ishxona kuyinishga arzimaydi. Na puli...”

Davronning oxirigi javobi jamiyatning qiyofasini ko‘rsatgandek, go‘yo. Ammo insonning o‘zida intilish bo‘lmasa u har qanday jamiyatda o‘zini ortiqcha biladi. Eng intim tuyg‘ularni ham bozorga soladi:

“— Har qalay jo‘jalarimiz yo‘q. Bir amallab kunimizni... deyishingizni bilaman, — Saodat uv tortgancha yig‘lab xonasidan chiqib ketdi”.

Shu gap eng so‘nggi munosabatlarni ham uzib yubordi va Davron Rossiyaga jo‘nab ketdi. Ammo u yerlarda ham yo‘lini topa olmadi. Ishlasa ham alamidan ishlardi.

Asardagi Safarali qiyofasi jo‘n, sodda, yorug‘, ya‘ni kaftdek namoyon. Bu Davronni biroz zalvorlli ko‘rsatadi. Dunyodagi yetuk romanlardagi obrazlar oldida bu qahramonlar xira va jo‘n. Safarali deydi: *“Xotinim bunchalik hokisor, epli-shudali bo‘lmaganida omad menga ham kulib boqarmidi?”*.

Safaralining fe’li kaftdek namoyon bo‘lishiga misol keltiramiz: *“Xotining bekorga tashlab ketmagan ekan, oshna. Rostini aytganim uchun mendan xafa bo‘lma. Fe’limni bilasan-ku”*.

Bu munosabatga Davron ham tezda rozi bo‘ladi. Bunday bo‘lishi mumkin emas. Tez rozi bo‘lish uchun vaziyat, kayfiyat yetilishi kerak edi. Muallif aroq ustidagi sarxushlikni vaziyat, kayfiyat yetilishi deya hisoblaydi: *“...Ha demay ikkalamiz ham eng badavlat odamlarga aylanamiz, — deydi Safarali og‘zining tanobi qochib. Ana*

o'shanda xotinimga: "Paypog'imni yuvib ber", — deb bemalol ayta olaman!".

Davronning 'ilmiy ishimni oxiriga yetkazishim uchun moddiy tomondan baquvvat bo'lishim kerak" tarzidagi fikrlashi asardan nimanidir kutayotgan o'quvchining hafsalasini pir qiladi. Shundan keyin yozuvchi o'zining Davron va Safarali kabi qahramonlarini kutilmagan vaziyatga tushiradi: ular restoranda ichib, mast bo'lganlaridan keyin Moskva yaqinidagi o'rmonda joylashgan g'ayritabiiy lagerga olib ketiladilar. Bunday qamoqxona tipidagi lagerlar hozir Rossiyada anchagina bo'lib, unga tushgan odamlarning og'ir va mashaqqatli mehnat sharoitidan qutilib ketishlari juda qiyin hisoblanadi. Lager boshliqlari pasportsiz qo'lga tushgan kishilarga mahbuslarga muomila qilish darajasida munosabatda bo'ladilar: ularni xohlaganlaricha ishlatadilar va katta maoshlar va'da qilib aldaydilar. Qamoqxona qonun-qoidalariga, tartiblariga bo'ysunmaganlar qattiq jazolanib, qulday ishlatiladi. Davron bilan Safarali ham shunday sharoitga tushib, deyarli qutilish mumkin bo'lmagan najotsiz ahvolda qoladilar. Kitobxon ularning taqdirleri nima bo'lishini — syujet qanday yechim topishini qiziqish bilan kutadi. Voqealar rivojidan ma'lum bo'lishicha, muallif ham kutilmagan yoki qiziqarli yechim topishga qiynalgan ko'rinadi. Natijada u romandagi tarangliklarni yanada kuchaytirishdan voz kechib, jo'n va oddiy yechim taqdim qilib qo'ya qoladi. Qamoqxonada paydo bo'lgan Gulrux degan chiroyli ayol bu yerdagi ayanchli vaziyatga ham, shuningdek, romanga ham nuqta qo'yadi. Gulrux shu qadar chiroyli, qamoqxona boshliqlaridan Nazarich ham, Po'latov ham uning atrofida parvona bo'la boshlaydilar, go'yo hamma narsani unutadilar. Minglab mardikor-mahbuslarni kuch bilan ushlab turgan bu rahbarlar bir ayolni zo'rlik bilan bo'ysundirish va shartlariga ko'ndirish yo'lini topolmay, nuqul undan marhamat kutishlari g'ayritabiiy tuyuladi kishiga. Boshliqlarning faqat Gulrux bilan birga bo'lish maqsadida butun lagerni tarqatib yuborib, bitmas-tuganmas foyda manbayidan mahrum bo'lishlari aqlga sig'maydi.

Roman yechimining muvofaqqiyatsiz chiqqanligi, unda shu xildagi yetarlicha dalillanmagan o'rinlar ko'pligi Qozoqboy Yo'ldoshev va Nusratilla Jumaxo'ja singari tanqidchilar tomonidan to'g'ri ko'rsatildi. Xususan, Qozoqboy Yo'ldoshev romanning kamchiliklari yuzasidan quyidagi o'rinli mulohazalarni bildirgan: "Zulfiya Qurolboy qizining g'oyat qiziqarli syujet va shirali tilga ega "Mashaqqatlar girdobi" romanida asosan shiddatli voqealar tasvirga intilganlari uchun ham timsollarning ruhiyati, ularning individual qiyofasini aks ettirish borasida kutilgan samaraga erishilmagan. Asarda qahramonlarning ko'ngil holatlari, ruhiy kechinmalaridan ko'ra ular kechirgan sarguzashtlarni tasvirlashga ko'proq e'tibor qaratilgan. Garchi asardagi deyarli barcha tasvirlarda mantiqiy izchillik, sabab-oqibat bog'liqliklari bo'lishiga erishgan esa-da, alohida shaxsning individual dunyosiga kirishga yetarlicha e'tibor qilinmagani ularda voqealarni xayrli oqibati borasidagi axborotni ta'kidlash ustunlik qiladi. Ayni shu holat ravon tilda, juda savodli yozilgan asarning yetarlicha salmoqli estetik yukka ega bo'lmisligiga olib keladi" (5, 131).

Yechimi birmuncha muvafaqqiyatsiz chiqqan bo'lsa-da, Zulfiya Qurolboy qizining "Mashaqqatlar girdobi" romani o'zbek adabiyotida Rossiyaga borib "qullik"ka tushgan odamlar qismati muammosini ilk bor ko'tarib chiqqan asar hisoblanadi. Bu romanning tarbiyaviy ahamiyati shundaki, ular kishilarimizni pul ketidan quvib kutilmagan dahshatlar girdobiga tushib qolishdan ogoh etadi.

Zulfiya Qurolboy qizining hozirgacha e'lon qilingan ikki romani uning bu janrdagi mahorati hali hikoyanavislikdagi iste'dodi darajasiga yetmaganligidan dalolat beradi. Ayni paytda bu romanlar hikoyachilikda yaxshi samara berayotgan iste'dodining imkoniyatlari kengligini ham namoyon qiladi.

Xulosa. Z.Qurolboy qizi bir jumlada bir necha sifatni qo'llash va uch nuqtadan foydalanish bilan tasvirga zalvor va ko'lam baxsh eta olgan. U o'z asarlarida o'ziga xos odamlarning o'ta chuqur iztirobini butun miqyosi bilan ifodalay biladi. Adiba asarlarida ayollar asosan ikki rangda: oq va qora ranglarda tasvirlanadi. Ayollar obrazini tarashlamay, silliqlamay, imkon qadar butun illati bilan tasvirlashga erishadi. Aynan tasvirdagi shafqatsizlik ushbu muallif asarlarining o'qishliligi, yodda uzoq qolishini ta'minlaydi. Z.Qurolboy qizi asarlarida ayolni ilgari ko'rilmagan rakursda ko'rsatdi. Ilk bor adiba ijodida ayol bunchalar xunuk, yoqimsiz tasvirlandi. Bunday yondashuv shu paytgacha Salomat Vafo asarlarigagina xos edi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Zulfiya Qurolboy qizi. Yovuzlik farishtasi. — T.: "Sharq" NMIU, 2005. — 365 b.
2. Zulfiya Qurolboy qizi. Quyosh men tomonda. — T.:Yangi asr avlodi, 2005. — 315 b.
3. Yo'ldoshev Q. Azobda toblangan odamlar tasviri. — T.: Yangi asr avlodi, 2009. — 314 b.
4. Yo'ldoshev Q. Yoniq so'z. — T.: Yangi asr avlodi, 2006. — 391 b.
5. Yo'ldoshev. Q. Roman va bugungi o'zbek romanchiligi // Sharq yulduzi. — 2011. № 4. — 131 b.

References

1. Zulfiya Qurolboy qizi. *Yovuzlik farishtasi* (The Angel of Evil), Tashkent, 2005, 365 p.
2. Zulfiya Qurolboy qizi. *Quyosh men tomonda* (The Sun is on my Side), Tashkent, 2005, 315 p.
3. Yo'ldoshev Q. *Azobda toblangan odamlar tasviri* (Image of People Suffering), Tashkent, 2009, 314 p.
4. Yo'ldoshev Q. *Yoniq so'z* (Hot Word), Tashkent, 2006, 391 p.
5. Yo'ldoshev. Q. *Sharq yulduzi*, 2011, No. 4, 131 p.